



MAVZU: BANK OMONATI SHARTNOMASINING FUQAROLIK HUQUQI DOIRASIDAGI AHAMIYATI

*O'zbekiston Milliy universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi" yo'nalishi, 4-bosqich,*

Xudoyorov Dostonbek Kamoliddin o'g'li

Ilmiy rahbar: Choriyeva Xurshidabonu katta o'qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bank omonati shartnomasining fuqarolik huquqiy maqomi, ahamiyati, shartnoma tushunchasi, taraflar va ularning huquq va majburiyatlari, bank omonati shartnomasining fuqarolik jamiyatida tutgan o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, qonunchilik normalari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Fuqarolik jamiyati, shartnoma, fuqarolik huquqi, omonat, bank omonati, jismoniy shaxs, muomala layoqati, depozit, bank omonati shartnomasi, bank, omonatchi.*

Kirish. Bugungi fuqarolik jamiyati hayotida bank omonati shartnomasi juda muhim o'rin tutadi. Omonatlar ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, masalan tijorat maqsadlariga yani bank omonati ko'pincha investorlarning mablag'larini ishonchli va xavfsiz saqlash hamda uni ko'paytirishni taminlash uchun foydalaniladi. Yoki uy-joy, mashina olish, yoki pensiya taminotini jamg'arib borish uchun qo'llanilishi mumkin. Omonatga qisqacha to'xtalib o'tsak omonat bu - jismoniy shaxslar yoki yoki yuridik shaxslar, korxona va tashkilotlarning bankka yoki biror bir moliyaviy tashkilotga



saqlash uchun qo'ygan mablag'i yoki boshqa qimmatbaho buyumlari bo'lishi mumkin.

Asosiy qism. Muomala layoqatiga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs o'z nomiga va boshqa shaxs nomiga omonat qo'yishi, o'zining bank omonat hisobvarag'idagi mablag'ini o'zi yoki vakili orqali mustaqil tasarruf etishi, shuningdek boshqa shaxslar omonat mablag'larini tasarruf etish uchun vakil bo'lishi mumkin.¹ Shunday deb aytib o'tib ketilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi tahrirdagi qarorida. Shu o'rinda omonatlar fuqarolarga qanaqa yordam berishi mumkin? degan savol tug'ilishi mumkin. Omonatlar mijozlarga pul yoki boshqa qimmatbaho mablag'larini xavfsiz saqlash hamda saqlangan omonat evaziga to'lanadigan ma'lum foizlar evaziga daromad ko'paytirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2000-yil 21-martdagi farmoniga muvofiq, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. ²Ushbu qonunga muvofiq mamlakatda omonatchilarning omonatlari sug'urta qilinadi. O'zbekistonda omonatlar **depozit** sug'urtasi tizimlari orqali sug'urtalangan bo'ladi, bu kabi sug'urta tizimi orqali omonatchilar o'zlari qo'ygan omonatlarini xavfsizligiga to'laqonli ishonch hosil qilishlari mumkin. Odatda bu tizim davlat tomonidan ishlab chiqilgan bo'ladi va banklar tomonidan moliyalashtiriladi, shuning uchun ham omonatchi omonatini qo'ygan bank bankrotga uchragan taqdirda ham uning mablag'i depozit sug'urtasi tomonidan qaytarib beriladi. Depozit sug'urtasining asosiy maqsadi jamiyatda fuqarolarning bank tizimiga bo'lgan ishonchlarini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ushlab turish hisoblanadi.

Bank omonati shartnomasi – bu bir taraf omonat mablag'ini qabul qilayotgan bank, ikkinchi taraf shartnomada keltirilgan shartlar asosida omonatini kiritayotgan omonatchi tomonidan tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Bank omonati shartnomasi omonat mablag'ini qaytarish va unga foizlar to'lash

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017-yil 16-dekabrdagi 34/9-son qaroriga ilova 3-bandidan

² O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Farmoni, 21.03.2000 yildagi PF-2564-son





majburiyatini anglatadi. Omonatchi jismoniy shaxs bo'lgan bank omonati shartnomasi ommaviy shartnoma deb hisoblaniladi. Bank omonati shartnomasi qo'yiladigan depozit bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi.³ Bank omonati shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lishi shart. Agar uning yozma shakliga amal qilinmaydigan bo'lsa unda shartnomaning haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi.

Bank omonati shartnomasida quyidagi masalalar aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

- Shartnomada tomonlar, omonatchi va bankning nomi aniq keltirilgan bo'lishi kerak.
- Shartnomada omonatning turi keltirilgan bo'lishi kerak yani muddatli omonat yoki muddati aniq belgilanmagan omonat bo'lishi mumkin.
- Agar shartnomada foiz to'lanadigan bo'lsa, foiz stavkasi aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.
- Shartnoma tuzilgan sana va uning amal qilish muddati aniq kursatilgan bo'lishi lozim.
- Omonatni muddatidan oldin qaytarish shartlari yoki shartnoma shartlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq masalalar keltirilgan bo'lishi.
- Tomonlarga yuklatiladigan huquq va majburiyatlar ham shartnomada keltirib o'tilgan bo'lishi lozim.

Bu kabi elementlar bank omonati shartnomasining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Har bir bank shartnoma turlariga qarab o'zlarining yana qo'shimcha shartlarini kiritishlari mumkin. Omonatchi o'z omonatini o'zi erkin tasarruf etishi yoki shartnoma shartlariga ko'rsatilgan bo'lsa uchunchi shaxsga ham tasarruf etishga berishi mumkin, bu kabi ishonchnoma davlat notariusidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Bank omonati shartnomasining fuqarolik jamiyatida tutgan o'ziga xos xususiyatlari shundaki, bank omonat shartnomasida mijozning qo'ygan omonatini

³ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi Toshkent "Yuridik adabiyotlar publish" 2021-yil III- bo'lim 373-betlar



saqlashga hamda o'zining mijozlariga moliyaviy faoliyatlarini amalga oshirish uchun ushbu mablag'ni kredit sifatida berishga vakolatli hisoblanadi. Ammo ushbu mablag'ni to'liq holda qaytarish majburiyatini o'zida to'laqonli saqlab qoladi. Yani bankdan kredit oluvchilar o'z vaqtida kredit to'lovlarini qaytarmasalar ham omonat shartnomasida keltirilgan muddatda omonatchiga omonat mablag'ini qaytarib berishga majbur hisoblanadi. Bank omonati shartnomasi bank bilan mijoz o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlarni aniq belgilab beruvchi va majburlov kuchiga ega bo'lgan yuridik hujjat hisoblanadi. Shartnoma tuzishda uning mohiyati, mazmuni hamda bajarilish tartibi qonunchilikka mos holda tuzilgan bo'lishi kerak. Shuningdek shartnoma tuzishda sug'urta shartlari uning eng yuqori miqdori ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Omonat shartnomasining fuqarolik huquqi doirasidagi muhim ahamiyatlaridan biri shundaki, unda omonatni qachon va qay tarzda qaytarilish shartlari aniq kursatiladi. Omonatni qaytarish ikki xil usulda amalga oshiriladi, birinchisi shartnoma muddati tugaganidan so'ng, keyingisi mijozning talabiga ko'ra amalga oshiriladi. Omonat shartnomasini ochishda bazi banklar qo'shimcha komissiya to'lovlarini talab qilishlari mumkin, bu banklarning ichki tartib qoidalari orqali farq qiladi. Omonat shartnomasi bank bilan mijoz o'rtasidagi eng muhim hujjat hisoblanadi, hamda o'zining majburlov kuchiga ega bo'lib, bunda mabodo bir taraf shartnoma shartlarini buzgudek bo'lsa, unda ikkinchi tarafning huquqlari himoya qilinadi. Agar tomonlar o'rtasida nizo chiqqan taqdirda omonat shartnomasi nizoni bartaraf etishdagi asosiy hujjat hisoblanadi. Bank omonati shartnomasida biror bir sabablarga ko'ra qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa unda ikkala tomonning ham roziligi asosida amalga oshiriladi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bank omonati shartnomasi ikkala tarafning ham huquqlarini himoya qiladi, hamda majburiyatlarini belgilab beradi. Fuqarolik huquqi doirasidagi ahamiyatiga keladigan bo'lsak, bunda omonat shartnomasini tuzish jarayonida fuqarolar o'zlarining huquqlari va majburiyatlarini bilib olishlariga imkon beradi. Shartnomada keltirib o'tilgan shartlar bilan tanishib





chiqish esa fuqarolarning banklar bilan o'zaro aloqadorligini oshiradi, hamda bank xizmatlaridan qonuniy foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017-yil 16-dekabrdagi 34/9-son qaroriga ilova 3-band.
2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Farmoni, 21.03.2000-yildagi PF-2564-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi Toshkent "Yuridik adabiyotlar publish" 2021-yil III- bo'lim 373-betlar.